



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2025-yil yanvar*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 76-225-65-74*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar oyi, foizda)




2025-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 790 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 718 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025-yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025-yillar)



2025-yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **108,5 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 832,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 108,5 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 67,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 765,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 460,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,1 %) tashkil etdi.

## Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar oyi)

	Jami, mlrd so'm	2024-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1832,9</b>	<b>108,5</b>
Termiz sh.	309,3	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	73,1	108,7
Angor	82,5	110,5
Bandixon	29,1	109,6
Boysun	72,9	106,4
Muzrabot	78,8	107,8
Denov	398,7	106,7
Jarqo'rg'on	94,8	109,6
Qumqo'rg'on	84,3	110,7
Qiziriq	76,4	107,9
Sariosiyo	67,3	106,5
Termiz	41,1	109,2
Uzun	83,3	110,4
Sherobod	114,5	109,0
Sho'rchi	174,8	108,6

2025-yilning yanvar oyida 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (110,7 %), Angor (110,5 %) va Uzun (110,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 22,4 % bilan 398,7 mlrd so'mni tashkil tdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,7 % bilan 29,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'm
Denov	398,7
Termiz sh	309,3
Sho'rchi	174,8
Sherobod	114,5
Jarqo'rg'on	94,8
Qumqo'rg'on	84,3
Uzun	83,3
Angor	82,5
Muzrabot	78,8
Qiziriq	76,4
Oltinsoy	73,1
Boysun	72,9
Sariosiyo	67,3
Termiz	41,1
Bandixon	29,1




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025-yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 765,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 8,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 13,0 % ga oshdi va 67,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,7 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (99,3 %), Qiziriq (99,2 %) va Angor (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (7,0 %), Denov (5,1 %), Jarqo'rg'on (3,1 %) va Sherobod (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025-yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 629,6 ming so'mni (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 106,3 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (1 512,7 ming so'm), Denov (937,5 ming so'm) va Sho'rchi (755,3 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar), foizda**



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2025-yil yanvar)**

	<b>Jami, mlrd so'm</b>	<b>2024-yil yanvarga nisbatan, foizda</b>
Surxondaryo viloyati	<b>460,1</b>	<b>114,1</b>
Termiz sh.	39,8	139,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	34,2	103,0
Angor	15,9	109,5
Bandixon	21,3	109,6
Boysun	28,3	108,2
Muzrabot	38,6	110,4
Denov	47,5	111,5
Jarqo'rg'on	25,2	114,7
Qumqo'rg'on	32,5	117,7
Qiziriq	31,9	115,6
Sariosiyo	27,6	104,7
Termiz	17,8	117,2
Uzun	35,5	118,1
Sherobod	28,3	117,0
Sho'rchi	35,7	115,8


*qo'shmagan holatda;*

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda (2025-yil yanvar)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025-yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 460,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 180,3 mlrd so'mni (104,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 279,8 mlrd so'mni tashkil etdi (121,0 %).




2025-yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 180,3 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga ( 98,1 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>98,1 mlrd so'm</b>  <b>54,4 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>16,2 mlrd so'm</b>  <b>9,0 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>17,6 mlrd so'm</b>  <b>9,8 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>4,6 mlrd so'm</b>  <b>2,5 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>7,6 mlrd so'm</b>  <b>4,2 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>5,6 mlrd so'm</b>  <b>3,1 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>3,9 mlrd so'm</b>  <b>2,2 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>5,7 mlrd so'm</b>  <b>3,2 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>1,3 mlrd so'm</b>  <b>0,7%</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>4,9 mlrd so'm</b>  <b>2,7 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>3,9 mlrd so'm</b>  <b>2,2 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>10,9 mlrd so'm</b>  <b>6,0 %</b>

2025-yilning yanvar oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 279,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 215,7 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 62,3 mlrd so'mni, otlar – 1,3 mlrd so'mni, parrandalar – 0,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar
135,8 mlrd so'm	48,0 mlrd so'm	31,9 mlrd so'm
 48,5 %	 17,2 %	 11,4 %

Qo'ylar	Otlar	Echkilar
50,5 mlrd so'm	1,3 mlrd so'm	11,8 mlrd so'm
 18,0 %	 0,5 %	 4,2 %

Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyonglar
0,2 mlrd so'm	0,2 mlrd so'm	0,1 mlrd so'm
 0,1 %	 0,1 %	 0,0 %

Qushlar
mlrd so'm
 %



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 429 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 428 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar)

	Jami mlrd so'm	2024-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>526,7</b>	<b>111,3</b>
Termiz sh.	14,8	111,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1,1	114,1
Angor	1,2	108,9
Bandixon	0,4	119,7
Boysun	1,0	110,8
Muzrabot	1,1	115,8
Denov	6,6	106,6
Jarqo'rg'on	1,8	101,8
Qumqo'rg'on	1,0	107,3
Qiziriq	0,7	106,2
Sariosiyo	2,0	118,4
Termiz	2,8	108,1
Uzun	1,2	111,2
Sherobod	1,9	115,2
Sho'rchi	1,7	116,8

2025-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 526,7 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi..


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>103,4</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	41,0	39,7
tumanlar:		
Oltinsoy	0,4	0,4
Angor	2,7	2,6
Bandixon	0,2	0,2
Boysun	0,3	0,3
Muzrabot	0,1	0,1
Denov	43,1	41,6
Jarqo‘rg‘on	6,3	6,1
Qumqo‘rg‘on	1,8	1,8
Qiziriq	1,2	1,1
Sariosiyo	0,5	0,5
Termiz	2,1	2,0
Uzun	0,1	0,1
Sherobod	0,7	0,7
Sho‘rchi	2,9	2,8


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (43,1 mlrd so‘m) va Termiz shahri (41,0 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)



2025-yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 103,4 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 33,2 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 233,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 70,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 120,3 %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 670,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 642,9 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,8 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar)

	Jami mlrd so'm	2024-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>670,9</b>	<b>106,9</b>
Termiz sh.	89,5	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	12,6	107,8
Angor	10,0	99,7
Bandixon	31,1	103,1
Boysun	2,1	110,7
Muzrabot	35,6	120,0
Denov	143,2	102,7
Jarqo'rg'on	11,9	101,9
Qumqo'rg'on	9,6	102,6
Qiziriq	3,0	103,0
Sariosiyo	10,0	104,7
Termiz	26,3	103,0
Uzun	4,7	102,1
Sherobod	23,7	103,1
Sho'rchi	21,1	102,8

2025-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 175 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 159 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy (442,8 %), Boysun (347,2 %) va Jarqo'rg'on (110,7 %) tumanlarida kuzatildi.